

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14251803>

## 1-SINF ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR LUG'ATINI BOYITISH YO'LLARI

**O'skinboyeva Laylo**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti  
Boshlang'ich ta'lim fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

**M.A.Hamrayev**

Ilmiy rahbar: Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti  
Boshlang'ich fakulteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

E-mail: [m.a.hamrayev@gmail.com](mailto:m.a.hamrayev@gmail.com)

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada 1-sinf ona tili darsliklarida keltirilgan atamalar va ularning izohlari. 1- sinf ona tili darslarida o'quvchilar lug'atini boyitish yo'llari haqida ma'lumotlar berilgan*

***Kalit so'zlar:** So'z, lug'at, nutqiy kreativlik, leksikografiya, leksikologiya, nutq, imloviy lug'at, imloviy savodxonlik, atama, ibora, tasviriy ifoda, dunyoqarash, kreativlik.*

***Аннотация:** В данной статье представлены термины и их пояснения в учебниках родного языка для 1 класса. На уроках родного языка в 1 классе дается информация о способах обогащения словарного запаса учащихся.*

***Ключевые слова:** Слово, лексика, речевое творчество, лексикография, лексикология, речь, орфографический словарь, орфографическая грамотность, термин, словосочетание, наглядное выражение, мировоззрение, творчество.*

**Abstract:** *This article presents terms and their explanations in native language textbooks for the 1st grade. Native language lessons in the 1st grade provide information on ways to enrich students' vocabulary.*

**Key words:** *Word, vocabulary, speech creativity, lexicography, lexicology, speech, spelling dictionary, spelling literacy, term, phrase, visual expression, worldview, creativity.*

Hozirgi glaballashuv jarayonida zamon shiddat bilan o'zgarib bormoqda, zamon o'zgarishi, albatta, yosh avlodga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Bugungi kunda ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri bu o'quvchilarning lug'at boyligini oshirishdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining so'z zaxirasini tadqiq etar ekanmiz, ular lug'ati texnikaga oid so'zlar bilan boyishini ko'rishimiz mumkin. Darsliklarda berilgan matnlardagi izoh berishi lozim bo'lgan so'zlar ustida esa ish yaxshi tashkil etilmayotganiga guvoh bo'lamiz. Shu o'rinda boshlang'ich sinf o'quvchilarining lug'at boyligini oshirishda asosiy ustuvor usullardan: yozma va og'zaki nutq mashqlarini birgalikda olib borishdir. O'qituvchilar o'quvchilarga yangi ma'noli so'zlarni mavzuga bog'lab va o'zbek tilida ravon tushuntirib berishi kerak. O'z navbatida lig'atlar bilan ishlash ham kreativlikni oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Lug'atlar bilan ishlash o'quvchilarda kuzatuvchanlik qobiliyatini yuzaga chiqaradi, ularning nutq madaniyatini yuksaltiradi, fikrlashini, dunyoqarashlarini kengaytiradi. So'z boyligini oshiradi, o'quvchilarda savodli yozishni kuchaytiradi. O'qituvchilar hozirgi kunda tilimizda ko'p ishlatiladigan zamonaviy so'zlarning izohini, ularning kelib chiqish tarixini imlosini o'quvchilarga o'tishi lozim.

So'z tilning ma'no bildiradigan asosiy birligidir. So'z va so'z birikmasi aniq narsalarni mavhum tushunchalarni, hissiyotlarni ifodalaydi. Tilda mavjud bo'lgan barcha so'zlar va iboralarning yig'indisi lug'at tarkibi deyiladi.

O'quvchilarning lug'at boyligini oshiruvchi oshiruvchi manbalarga - darsliklar, ular o'qiydigan kitoblar, gazeta, jurnal, o'yinlar, texnik vositalar kiradi.

Boshlang'ich ta'limda lug'atlar ustida ishlash bo'yicha umumiy yo'l-yo'riqlar ishlab chiqilgan. Boshlang'ich sinflarda lug'atlar bilan ishlash bo'yicha darslar ajratilmagan. Asosan, lug'atlar ona tili va o'qish savodxonligi darslari mavzulari bilan birga o'rgatib o'tiladi. Bu o'quvchilarning lug'at boyligini oshiradi. O'quvchilar uchun ma'nosi notanish bo'lgan so'zlar bilan ishlash 1-sinfdan boshlanadi va o'quv jarayonida davom etadi. Boshlang'ich sinf darsliklari rasmlarga boy. Shu sababli o'quvchilar kitoblarga qiziqishadi. Shu paytda ustoz o'quvchilardan tasvirlarda ko'rayotgan narsalarini so'raydi. Bolalarning hammasi har xil ta'rif berishadi. Bunday paytlarda ustozlar o'quvchilardan "Tasvirlarda aks etgan hodisalarni yana qanday atash mumkin?" degan savol bilan murojaat etishi natijasida o'quvchilar o'z lug'at boyliklaridan foydalanib uning yangicha ma'nolari haqida fikr yurita boshlaydilar va yangi so'zlar bilan tanishib olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

1-sinf ona tili darsligi "Milliy o'quv dastur" va DTS talablariga mos qilib ishlab chiqilgan. Unda ona tili fani uchun har bir chorakka 32 soat belgilanib olingan.

Uning dastlabki mavzusi "Kirish. Ona tili nima?" deb nomlangan bo'lib, unda keltirilgan mashqlarning birida she'riy parcha keltirilgan.

### *Ona tilim*

*Ona tilim - yurak qa'rimdan*

*Mehr bo'lib sochilgan jarang .*

*Qulog'imga go'dak paytimdan,*

*Alla bo'lib singgan ohang.*

*Ona tilim - necha asrlar*

*Kurashida yenggan polvonim.*

*Necha ajdod, necha nasllar,*

*Suyib o'tgan turkiy zabonim.*

*Iroda Umarova*

Ushbu she'riy parchada o'quvchilar uchun izohtalab so'zlar mavjud. Ulardan: :Nasl-a). Bir avlod-ajdodga mansub kishilar urug'i, ularning kelib chiqishi, zoti, nasabi, tagi-taxti.

b)kelajak avlod, zurriyot.

d) biol. Ma'lum belgi-xususiyatlarga ega, bir turga mansub o'simliklar, bir zotga mansub hayvonlar guruhi; urug', zot.

Zabon- tojik tilidan olingan bo'lib til degan ma'noni bildiradi.Gapda qo'llanilgan o'rniga qarab har xil ma'noni anglatadi. Masalan,

a) turkiy zabon -turkiy tilda so'zlovchilar,

b) shirin zabon shirin so'z ma'nosini ifodalaydi.

3-mavzu :“Til va nutq.Nutq nima” mavzusida esa nutq tushunchasi ucharydi.

Nutq-inson tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish,avlodlarga uzatish va aloqa o'rnatish ,o'z shaxsiy harakatlarini rejalashtirish va amalga oshirish maqsadida tildan foydalanish jarayoni.

Mavjudot- olam, tabiatda bor narsalar majmui,dunyoda mavjud narsalar , butun borliq.

5-mavzu: “Harf nima?” deb nomlangan bo'lib ,unda esa 2-mashqdagi buloq so'zi, ba'zi bir o'quvchilar uchun uloq so'zi jumboqlidir.

Buloq- yer ostidan otilib ,qatnaq chiquvchi suv vq shunday suv chiqib turgan joy.

**Uloq - . 1 ot Ulanadigan narsa.**

1. Turli yo'l bilan (bog'lash, tikish, yelimlash, kavsharlash, mixlash va shu kabilar bilan) o'zaro tutashtirib, mahkamlab biriktirib qo'yilgan, ulangan bir necha bo'lakdan iborat, yaxlit emas.

1. Narsaning bo'laklari o'zaro ulanganda hosil bo'lgan tuguni yoki choki, ulangan joyi.
2. Echkining bolasi
3. Har bir otliq o'rtaga so'yib tashlangan uloqni (odatda echki yoki kichikroq buzoqni) bir-biridan kuch bilan tortib olib, tezroq marraga eltib tashlash uchun kurashishdan iborat milliy sport o'yini; ko'pkari.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, mavzularda aytilgan yangi soʻzlar oʻquvchilarning lugʻat boyligini oshiradi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilari yangilik va izlanishlarga juda qiziqqunchan boʻlishadi. Birorta yangi narsalar aytib oʻtilsa darrov yodlab olishadi va oʻz nutqida tezroq qoʻllashga urinadilar. Yangi lugʻat soʻzlarni oʻrganish orqali ularning soʻz boyligi oshadi, kreativ fikrlashi kuchayadi. Oʻqituvchi dars davomida qancha koʻp yangi soʻzlar qoʻllasa, oʻquvchilar ham darsga shuncha koʻp qiziqishadi. Oʻquvchilarning soʻz boyligini oshirish va nutqini ravon qilish uchun koʻproq ota-onalar ham bollari bilan shugʻullanishi kerak boʻladi. Bolalariga koʻproq kitob oʻqib berishi, ularning oʻzlariga ham oʻqitishi lozimdir. Oʻquvchilarning nutqi ravon boʻlishi uchun tez aytishlarga ham murojaat qilish foydadan xoli boʻlmaydi. Nutqining ravonligi oʻz fikrini toʻgʻri, aniq, toʻgʻri, mantiqiy va chiroyli ifodalanishlariga olib keladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. "Pedagogik mahorat" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. Buxoro, 2018-yil, 107-b
3. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida Gʻulomova, Sharofat Yoʻldasheva, Sharifjon Sariyev. "Ona tili oʻqitish metodikasi".
4. "Oʻzbek tili fanidan lugʻatlar ustida ishlash orqali talabalarning soʻz boyligini oshirish" metodik koʻrsatmasi. Toshkent, 2005-yil
5. Abdurahob Madvaliyev "Oʻzbek tilining izohli lugʻati" Toshkent, 2021-yil.
6. 1-sinf "Ona tili" darsligi 1-qism. Yuldasheva, "Novda" Toshkent -2023-yil.